

## MAKTAB O'QUVCHI QIZLARI O'RTASIDA ERTA HOMILADORLIK HOLATLARINI OLDINI OLISHNING DOLZARB MASALALARI

*Abduvohidova Mohigul Saidaxmad qizi*

*Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 44-maktab amaliyotchi psixologi*

*Xamidova Matluba Karimovna*

*Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 22-maktab amaliyotchi psixologi*

*Rasulova Guljaxon Juraboyevna*

*Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 81- maktab amaliyotchi psixologi*

*Komila G'ofurova Hasan qizi*

*Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 50-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktab o'quvchi qizlari o'rtasida erta homiladorlik holatlarining oldini olish, uning psixologik va ijtimoiy sabablari hamda profilaktik choralari yoritiladi. Shuningdek, oila, maktab va jamiyat hamkorligining ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:**Erta homiladorlik, profilaktika, o'quvchi qizlar, tarbiya, oila, maktab, psixologik yordam, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy muhit

### KIRISH

Erta homiladorlik muammosi bugungi kunda ta'lim va jamiyat oldida turgan dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biridir. Bu holat nafaqat o'quvchi qizlarning sog'lig'iga, balki ularning ta'lim olishi, kelajakdagi hayoti va ijtimoiy moslashuviga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi qizlarni ijtimoiy faolligini ularning ijtimoiy siyosiy jarayonlardagi ishtirokini mehnat hamda madaniy ma'rifiy faoliyatini kuchayishi qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishi tushuniladi. Jamiyatda ijtimoiy faol shaxsning o'z o'rnini topishi va xulq atvorini ongli ravishda boshqarishining asosiy sharti hisoblanadi. Ijtimoiy faollikning uch turi mavjud: ijtimoiy siyosiy jarayonlar va madaniyat mehnat va turmush sohasidagi mehnat faolligi mehnat munosabatlari sohasida namoyon bo'ladi va subektning kasbiy ijtimoiy vazifani bajarish bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Jamiyatimizda ham qizlarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan ishlar juda ko'p.

Mamalakatimizda xotin-qizlarni huquqlarini himoya qilish ularning bandligini ta'minlash to'g'risida ham qonunlar, qarorlar va turli xil tadbirlar tashkil etilyapti.

Ulardan biri joriy yilning 23-26mart kunlari Samarqand shahrida ilk bor “Qizlarjon” o‘quvchi qizlar sammiti bo‘lib o‘tdi. Mazkur sammit o‘quvchi qizlarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish kasb-hunarga o‘rgatish shuningdek milliy urf-odat va an‘analar ruhida tarbiyalash, oilaviy hayotga tayyorlash, ilg‘or tajribalarini ommalashtirish va qo‘llab-quvvatlash kabi maqsadlarni ko‘zlab umumta‘lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Ilm fan-kelajak poydevori” shiori ostida tashkil etiladi.

O‘quvchi-qizlar suhbat asosida ijtimoiy jarayonlardagi faolligi, Vatani tarixi va buguni haqida ma‘lumotga egaligi, xorijiy tillarni mukammal bilishi, liderlik ko‘nikmalari shakllanganligi, ta‘lim, ijtimoiy sohalardagi xorijiy tajribasi bilan tanishligi, tanqidiy va tahliliy tafakkurining rivojlanganligi, inobatga olingan holda saralanadi. Bu turdagi tadbirlar ,sammitlar mamalakatimizda xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ularni ijtimoiy hayotga jamiyatga kirishida yordam beradi. Hozirgi kunda mamalakatimizda qizlarni erta turmushga berish odati yo‘qolyapti. Bundan o‘n yil oldin ham bu odat mavjud edi. Bu qizlarimiz uchun juda katta ta’sir ko‘rsatardi. Qizlarni o‘qitishmasdi biror hunar o‘rgatib o‘n sakkiz yoshida turmushga berib yuborilardi. Yosh qizlar o‘zlari hali bola bo‘la turib ona bo‘lishardi. Farzandiga yaxshi qaray olishmasdi ham. Davlatimiz olib borgan siyosat tufayli bu odat ancha yo‘qoldi. Jamiyatimiz qizlarga ham ta‘lim berish kerakligini va bu kelajak avlod uchun ham foydali ekanligini tushunib yetishdi. Qizlarga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Erta turmushga berish qonunan ta’qiqlandi.

Qizlarning sog‘lig‘i ham e’tiborga olindi. Chunki sog‘lom ona sog‘lom bola deb shifokorlarimiz ham bejiz aytmagan. Qizlarimiz erta turmush va qarindoshlar orasidagi nikoh orqali ham sog‘lig‘i ancha zaiflashdi. Ulardan tug‘ilgan farzandlar ham sog‘lom bo‘lmasligi mumkin edi. Xalqimiz genofondini yaxshilash uchun ham bu turdagi nikohlar ham qoralandi. Davlatimiz bu borada ham qonun chiqarishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Endilikda yurtimizda tashlab ketilgan bolalarning ham ota-onasini aniqlash yo‘lga qo‘yildi. Bu orqali kelajakda aka-singillar nikohini oldini olish hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar kelajagimiz uchun ham qizlarimiz uchun ham yaxshi natijalar bermoqda. Bugungi kunda qizlarni bilimli qilish yo‘lida yana bir tadbir joriy qilindi. Qizlarga foizsiz ta‘lim krediti berish ham xotin-qizlarga bo‘lgan e’tiborning kuchli ekanligidan dalolat beradi. Bu berilayotgan imkoniyatlardan qizlarimiz to‘g‘ri foydalansa o‘zi uchun faqat foyda bo‘ladi. Psixologik nuqtayi nazardan erta homiladorlikka olib keluvchi omillar orasida yetarli bilim va tushunchalarning yetishmasligi, oiladagi nazoratning sustligi, ijtimoiy muhit ta’siri hamda noto‘g‘ri axborotlar muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda jamiyat rivojida yosh avlodning sog‘lom, bilimli va ma‘naviy yetuk bo‘lib voyaga yetishi muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan maktab o‘quvchi qizlari o‘rtasida erta homiladorlik holatlarining oldini olish dolzarb ijtimoiy-psixologik va

pedagogik muammolardan biridir. Erta homiladorlik nafaqat qizlarning salomatligiga, balki ularning ta'lim olish jarayoniga, kelajakdagi hayotiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Erta homiladorlikning kelib chiqish sabablari

O'smir qizlar o'rtasida erta homiladorlikning yuzaga kelishiga bir qator omillar sabab bo'lishi mumkin:

- jinsiy tarbiya va ma'lumotning yetishmasligi;
- oilada nazorat va muloqotning sustligi;
- internet va ijtimoiy tarmoqlardagi noto'g'ri axborotlar;
- tengdoshlar ta'siri va bosimi;
- ota-onaning farzand tarbiyasiga yetarli e'tibor bermasligi;
- psixologik beqarorlik va o'zini to'g'ri baholay olmaslik.

Erta homiladorlikning oqibatlarini

Erta homiladorlik qizlarning hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi:

- ta'lim jarayonining uzilishi;
- psixologik stress va depressiya holatlari;
- sog'liq uchun xavf (organizmining to'liq rivojlanmaganligi sababli);
- ijtimoiy muammolar va kamsitilish;
- kelajakdagi oilaviy hayotga salbiy ta'sir.

Oldini olishning psixologik va pedagogik yo'llari

Erta homiladorlikning oldini olishda maktab, oila va jamiyat hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

#### 1. Oila tarbiyasi

ota-onalar farzandlari bilan ochiq muloqot o'rnatishi;  
qizlarni to'g'ri jinsiy va ma'naviy tarbiya bilan ta'minlash;  
nazorat va ishonch muvozanatini saqlash.

#### 2. Maktab ta'limi

tarbiyaviy soatlarda sog'lom turmush tarzi haqida tushuntirish;  
psixologik treninglar o'tkazish;  
o'quvchi qizlar bilan individual suhbatlar tashkil etish;  
sog'liq va reproduktiv bilimlar bo'yicha ma'lumot berish.

#### 3. Psixologik xizmat

maktab psixologi tomonidan profilaktik ishlar olib borish;  
o'smirlarning o'zini anglashini rivojlantirish;  
stress va bosimga qarshi kurashish ko'nikmalarini shakllantirish;  
ijobiy hayotiy maqsadlarni belgilashga yordam berish.

#### 4. Ijtimoiy muhit

yoshlar orasida sog'lom axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilish;  
salbiy axborotlardan himoya qilish;

ijobiy muhit yaratish.

Profilaktik ishlarning ahamiyati

Profilaktika ishlari erta homiladorlikning oldini olishda eng samarali yo'l hisoblanadi. O'quvchi qizlar bilan muntazam ishlash, ularning savodxonligini oshirish va psixologik barqarorligini mustahkamlash kelajakda sog'lom avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Maktab o'quvchi qizlari o'rtasida erta homiladorlikning oldini olish murakkab, ammo juda muhim vazifadir. Bu jarayonda oila, maktab va jamiyat hamkorligi, psixologik xizmatning samarali tashkil etilishi hamda tarbiyaviy ishlarning tizimli olib borilishi muhim o'rin tutadi. Yoshlarning bilimli, ongli va ma'naviy yetuk bo'lib voyaga yetishi jamiyat taraqqiyotining asosiy garovidir.

### **XULOSA**

Erta homiladorlik holatlarining oldini olishda maktab, oila va jamiyat hamkorligi muhim ahamiyatga ega. O'quvchi qizlarning psixologik savodxonligini oshirish, to'g'ri tarbiya berish va ishonchli axborot bilan ta'minlash asosiy profilaktik yo'nalishlardan biridir. Maktab psixologi va pedagoglar tomonidan muntazam tushuntirish ishlari olib borilishi, sog'lom ijtimoiy muhit shakllantirilishi bu muammoning oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, oilada ochiq muloqot va nazorat tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilishi ham muhim omillardan biridir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. G'oziev E. G. – Umumiy psixologiya. Toshkent, 2010.
2. Karimova V. M. – Oila psixologiyasi. Toshkent, 2013.
3. Vygotskiy L. S. – Psixologik rivojlanish nazariyasi. Moskva, 1999.
4. Myers D. G. – Psychology. New York, 2013.
5. Zimbardo P., Gerrig R. – Psychology and Life. Pearson, 2010.
6. UNICEF – Adolescent Development and Participation. 2020.